«APPLE PAY ORQALI BIRINCHI XARID UCHUN 100% KESHBEK» AKSIYASI SHARTLARI TBC OSMON MASTERCARD KREDIT KARTASI BO‘YICHA

Toshkent sh. «23» oktabr 2026-y.

Quyida bayon etilgan matn Bankning jismoniy shaxslarga yo‘naltirilgan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq Aksiyada ishtirok etish haqidagi rasmiy ommaviy taklifidir (keyingi o‘rinlarda – Oferta). Shartnoma jismoniy shaxs ushbu Ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi, bu uning barcha shartlarini so‘zsiz qabul qilganini bildiradi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Aksiya tashkilotchisi – «TBC Bank» ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank). Bank faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya №86; STIR: 207318613; manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 1.

1.2. Ushbu Ofertada qo‘llaniladigan atamalar:

1.2.1. Karta – Bank tomonidan chiqarilgan, milliy valyutadagi Mastercard to‘lov tizimining TBC Osmon kredit kartasi.

1.2.2. Mijoz (Ishtirokchi) – Karta egasi bo‘lgan jismoniy shaxs.

1.2.3. Apple Pay – Apple Inc. kompaniyasining kontaktsiz to‘lov xizmati bo‘lib, mos keladigan Apple qurilmasidagi Wallet ilovasiga qo‘shilgan Karta orqali to‘lovni amalga oshirish imkonini beradi.

1.2.4. Keshbek – ushbu Aksiya shartlariga muvofiq Bank tomonidan Mijozning Kartasiga qaytariladigan pul summasi.

1.3. Ushbu Ofertaning akzepti – Mijozning 3.1-bandda ko‘rsatilgan xaridni amalga oshirishidir. Aksiya lotereya yoki xavfga asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi, unda ishtirok etish uchun to‘lov talab qilinmaydi.

2. AKSIYANI O‘TKAZISH MUDDATI VA JOYI

2.1. Aksiya ushbu Oferta e’lon qilingan sanadan boshlab 2026-yil 30-noyabrgacha (shu kun ham kiradi) o‘tkaziladi.

2.2. Aksiyani o‘tkazish joyi – O‘zbekiston Respublikasi.

3. KESHBEK OLISH SHARTLARI

3.1. Keshbek olish uchun Mijoz Karta bilan Apple Pay xizmati orqali kontaktsiz to‘lov yo‘li bilan birinchi xaridni amalga oshirishi kerak (xizmat Karta uchun mavjud bo‘lishi lozim).

3.2. Keshbek bir Mijozga bir marta hisoblanadi – Aksiya davrida va birinchi Karta rasmiylashtirilganidan keyin uning istalgan Kartasi bo‘yicha amalga oshirilgan birinchi xarid uchun.

3.3. Keshbek xarid summasining 100% ini tashkil etadi, biroq 50 000 so‘mdan oshmaydi.

3.4. Keshbek pul mablag‘larini o‘tkazish, naqd pul yechish, kreditlarni so‘ndirish operatsiyalari, shuningdek MCC 4829, 5933, 6010, 6011, 6012, 6050, 6051, 6211, 6300, 6531, 6532, 6533, 6534, 6535, 6536, 6537, 6538, 6540, 5960, 7276, 7800, 7801, 7802, 7995, 9222, 9223, 9311, 9399, 9754 bo‘yicha operatsiyalar uchun hisoblanmaydi.

4. KESHBEKNI HISOBGA O‘TKAZISH TARTIBI

4.1. Keshbek xarid amalga oshirilgan Kartaga, tranzaksiya bo‘yicha kliring olingandan keyin 3 (uch) kun ichida pul ekvivalentida to‘lanadi.

4.2. Keshbek summasi Karta balansini oshiradi. Keshbekning hisobga o‘tkazilishi Mijozni Karta bo‘yicha majburiy to‘lovlarni belgilangan muddatlarda kiritish majburiyatidan ozod etmaydi.

4.3. Keshbek Karta bo‘yicha Tariflarda belgilangan keshbek limitlariga kiritiladi.

4.4. Hisobga o‘tkazilgan Keshbek to‘g‘risidagi ma’lumot TBC UZ ilovasida Karta bo‘yicha operatsiyalar tarixida aks ettiriladi.

5. BOSHQA SHARTLAR

5.1. Keshbek hisoblangan xarid qaytarilganda yoki bekor qilinganda, Bank Keshbek summasini Mijozning qo‘shimcha farmoyishisiz Kartadan hisobdan chiqarish huquqiga ega.

5.2. Bank suiiste’mol qilish, firibgarlik harakatlari yoki Aksiya shartlari buzilishi aniqlanganda Keshbekni hisoblamaslik yoki bekor qilish huquqiga ega.

5.3. Savdo-xizmat ko‘rsatish tashkiloti yoki ekvayer-bank taqdim etgan tranzaksiya ma’lumotlari xaridning Aksiya shartlariga muvofiqligini aniqlash uchun yetarli bo‘lmasa, Bank Keshbek hisoblanmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

5.4. Bank Aksiya shartlarini o‘zgartirish yoki uni muddatidan oldin yakunlash huquqiga ega, bu haqda ma’lumot tbcbank.uz saytida va/yoki TBC UZ ilovasida e’lon qilinadi.

5.5. Aksiyada ishtirok etishdan olingan daromad O‘zR Soliq kodeksining 369-moddasiga muvofiq soliqqa tortilmaydi.

5.6. Ushbu Ofertada tartibga solinmagan barcha masalalar Karta bo‘yicha shartnoma, Bank Tariflari va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi, kelishuvga erishilmagan taqdirda – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Bank ro‘yxatdan o‘tgan joydagi sud tartibida hal etiladi.